

## **BO‘G‘INLAR YIRINGLI YALLIG‘LANISHLARINING TASNIFI VA DIAGNOSTIKASI**

*Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti  
M.T.Isayev v.f.n. laboratoriya mudiri.  
I.Yu.Sultonova katta ilmiy xodim.  
A.I.Axmadow kichik ilmiy xodim.*

### **Annotasiya**

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi hayvonlarida uchraydigan qoramollar oyoq bo‘g‘in kasalliklar va ular keltirib chiqaradigan sabablari organizmga ta‘siri, klinik belgilari va ulardan qanday qilib qishloq xo‘jalik hayvonlarini himoya qilish to‘g‘risida bir qancha ma‘lumotlar bayon qilingan.

### **Аннотация**

В статье представлена информация о ящуре крупного рогатого скота, встречающейся у сельскохозяйственных животных, причинах их возникновения, влиянии на организм, клинических признаках и способах защиты сельскохозяйственных животных от них.

### **Summary**

The article provides information about foot-and-mouth disease in cattle, which occurs in farm animals, the causes of its occurrence, the effect on the body, clinical signs and ways to protect farm animals from them.

**Kalit so‘zlar:** yallig‘lanish, infektsiya, artrit, poliartrit, enterobakteriya, sepsis, giperemiya, infiltratsiya, masteratsiya, ekssudat, osteomiyelit, teri osti flegmonasi.

Hozirgi kunda respublikamiz chorvachiligi amaliyotida mahsuldor hayvonlar kasalliklar orasida oyoqlar distal qismi bo‘g‘inlarning kasalliklari bo‘rdoqichilik va sutchilik xo‘jaliklarida keng tarqalgan bo‘lib, bu patologiyaning kelib chiqishiga asosan hayvonlarni saqlash va oziqlantirishdagi yetishmovchiliklar tig‘iz saqlash, matsion va to‘shamalarning yetishmasligi, pollarning notejisligi va ifloslanganligi, tuyoqlarni o‘z vaqtida tozalab va kesib turmaslik, terining masteratsiyasi, ratsionlarning oqsillar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar bo‘yicha nomutanosibligi sabab bo‘ladi.

Mazkur holatlarni oldini olish hamda ularga qarshi kurashda, mavjud bo‘lgan an’anaviy diagnostika usullari hamda umumiy davolash tadbirlarini takomillashtirish xususan oyoqlar bo‘g‘inlarini kasalliklari bo‘rdoqichilik va

sutchilik xo‘jaliklarida keng tarqalgan bo‘lib, xavflilagini hisobga olgan holda, asosiy e’tiborni chorvachilikdagi – go‘sht, sut, mahsulotlari sifatiga qaratish lozim. Chunki bu mahsulotlar chorvachilik tarmog‘ini asosiy daromadi hisoblanadi, bu maxsulotlarning kamayishi iste’molchilar orasida talabning ortishini yuzaga keltiradi. Shu tufayli oyoqlar bo‘g‘inlarini kasallikkleri o‘ziga xos xususiyatlarini har tomonlama, atroficha tadbiq etish o‘ta muhim va dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Qoramollardagi bo‘g‘imlarning yallig‘lanishi. Hayvon avvaliga zo‘rg‘a seziladi va kasallikning rivojlanishi bilan kuchayadi. Ta’sir qilingan joylar shishiradi, keyingi bosqichda esa qattiq oqsoqlik paydo bo‘ladi. Hayvon o‘z mahsuldorligini ham, vaznini ham yo‘qotadi. Bu yiringli infektsiyalar tufayli yuzaga keladigan bo‘g‘imning o‘tkir yallig‘lanishi. Bu kasallik buqalar, sigirlar, buzoqlar, otlar, cho‘chqalarda uchraydi. Bunday holda, yosh muhim emas. Ko‘pgina hollarda, jarohatdan keyin artrit hatto kichik buzoqda ham rivojlanishi mumkin.

Qoramollar oyoq bo‘g‘in kasalliklar asosiy kasallikmas, ya’ni boshqa kasallik tuyfayli yuzaga kelishi mumkin: Misol uchun moddalar almashinuvining buzilishi, lat yeyish, surunkali kasalliklar va boshqa sabab bo‘ladi. Zaharlanish, sovqotish, hayvon organizmida mikroblarga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatining susayishi natijasida ham yallig‘lanish ro‘y beradi. Bundan tashqari o‘tkir, surunkali, allergik, yuqumli, revmatik (poliartrit), ekssudatli va boshqa artritlar farq qilinadi. Yallig‘lanishlarda bo‘g‘imlar og‘riydi, qizarib shishadi, shakli o‘zgaradi va harakati cheklanadi; yallig‘langan bo‘g‘im sohasida suyuqlik to‘planadi. Bundan tashqari quyidagi klinik belgilar kuzatiladi: Hayvonning letargiyasi va ovqatlanishdan bosh tortish (shuning uchun vazn yo‘qotish), shikastlangan oyoqlarning oqsoqlanishi yoki uning ma’lum bir holatda mahkamlanishi ya’ni (oyoqning majburiy holati), bo‘g‘imlarning shishishi va kuchli og‘riq, tez yurak urishi, zararlangan hudud issiq va og‘riqli bo‘ladi, sigir kasal a’zoda turmaslikka harakat qiladi, agar siz kasal a’zoni his qilsangiz, og‘riq kuzatiladi, suyak o‘sishi, bo‘g‘inni qattiqlashishi va harakatni cheklanganligi kuzatiladi.

Etiopatogenezi. Yiringli yallig‘lanishga ko‘proq stafilokokk, kamroq streptokokk va pnevmonok, enterobakteriyalar sabab bo‘ladi. Infeksiya bo‘g‘im bo‘shlig‘iga yonginasida bo‘lgan yiringli o‘choqdan (osteomiyelit, teri osti flegmonasi yuz berganda) to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishi mumkin; sepsis yoki o‘tkir tromboflebit holatlarida esa u bo‘g‘im bo‘shlig‘iga gemitogen yo‘l bilan tushadi. Kamdan-kam hollarda bo‘g‘imlarning o‘tkir yallig‘lanish kasalliklariga spesifik infektsiyalar (gonokokk, ich terlama tayoqchasi) sabab bo‘lishi mumkin. Patologoanatomik o‘zgarishlar jarayonning rivojlanish bosqichlariga ko‘ra

seroz, fibrinoz va yiringli yallig‘lanishlar farqlanadi. Yallig‘lanish jarayoni natijasida bo‘g‘im xaltachasida tez orada ekssudat yig‘iladi, giperemiya, shish va to‘qimalarning infiltratsiyasi yuz beradi. Odatda jarayon faqat sinovial pardalar bilangina cheklanib qolmay, balki bo‘g‘im xaltachasining hammasini qamrab oladi, bo‘g‘im kapsulasi flegmonasi rivojlanadi. Yallig‘lanish bo‘g‘im atrofidagi boshqa to‘qimalarga ham o‘tadi. Kasallik o‘tkazib yuborilgan hollarda bo‘g‘im tuzilishi butunlay buziladi, ko‘p miqdordagi yiringli oqmalar paydo bo‘ladi va yiringli jarayon bo‘g‘imning suyak sathiga o‘tadi.

**Xulosa:** Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni takidlash joizki qishloq xo‘jalik sohasiga keladigan iqtisodiy zararni bartaraf qilish zarur. Oyoqlar distal qismi bo‘g‘inlarning kasallikkari bo‘rdoqichilik va sutchilik xo‘jaliklarida keng tarqalgan bo‘lib, bu patologiyaning kelib chiqishiga asosan hayvonlarni saqlash va oziqlantirishdagi yetishmovchiliklar tig‘iz saqlash, matsion va to‘shamalarning yetishmasligi, pollarning notejisligi va ifloslanganligi, tuyoqlarni o‘z vaqtida tozalab va kesib turmaslik, terining masteratsiyasi, ratsionlarning oqsillar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar bo‘yicha nomutanosibligi sabab bo‘ladi. Bu borada esa qishloq xo‘jalik hayvonlarini bo‘g‘in kasallikkari bilan zararlanishini o‘z vaqtida oldini olish, kasallangan hayvonlarni o‘z vaqtida davolash ikkilamchi kasallikkarni rivojlanishiga yo‘l quymaslik lozim. Bundan tashqari parvarish qilinayotgan hayvonlar doimo nazoratda bo‘lishi hayvon saqlanadigan joyni toza tutish yani quruq saqlash maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.T.Isaev. A.I.Axmakov I.Yu.Sultanova. Qishloq xo‘jalik hayvonlarini ekto parazitlarga ta’sir qiluvchi Pest kil peritroiti zaharlilik darajasini quyonlar organizmiga ta’sir qilish mexanizmini o‘rganish. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi. Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti. “Veterinariya sohasidagi dolzarb muammolar echimi yosh tadqiqotchilar talqinida” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami 1/24. Samarqand 2024 y. 231-233 b.
2. M.T.Isaev. A.I.Axmakov I.Yu.Sultanova. Mikotoksinlar va ularning qishloq xo‘jalik hayvonlarga bo‘lgan ta’siri. Mikroorganizmlarni antibiotiklarga sezuvchanligini o‘zgarish sabablari va oqibatlari mavzusida Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya Toshkent 11 mart 2024 y. 428-431 b.
3. M.T.Isaev. A.I.Axmakov I.Yu.Sultanova. Mikotoksinlar keltirib chiqaradigan mikotoksikozlarga qarshi kurashish va ularni tekshirish usullari. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi. Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti. “Veterinariya soxasidagi dolzarb muammolar yechimi yosh tadqiqotchilar talqinida” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. TO‘PLAMI-2/24. Samarqand – 2024. 1 – noyabr 2024 yil. 215-218. bet

4. M.T.Isaev. A.I.Axmadov I.Yu.Sultanova. Qishloq xo‘jalik hayvonlarini ekto parazitlarga ta’sir qiluvchi Pest kil peritroiti bilan zaharlangan quyon organizmining patomorfologik o‘zgarishi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi. Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti. “Veterinariya soxasidagi dolzarb muammolar yechimi yosh tadqiqotchilar talqinida” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. TO‘PLAMI- 2/24. Samarqand – 2024. 1 – noyabr 2024 yil. 219-221. bet

5. M.T.Isaev. A.I.Axmadov I.Yu.Sultanova. Mikotoksinlar va ularning qishloq xo‘jalik hayvonlariga bo‘lgan ta’siri. “Mikroorganizmlarni antibiotiklarga sezuvchanligini o‘rganish sabablari va oqibatlari” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiyasi. Maqola to‘plami. Toshkent 2024 yil. 428-432 bet

6. M.T.Isaev. A.I.Axmadov I.Yu.Sultanova. Mikotoksinlar keltirib chiqaradigan muammolarga qarshi kurashish va ularni qishloq hayvonlarida joriy qilish. Samarqand davlat veterinariya medisinasи chorvachilik va biotexnologiya universiteti. «Zamonaviy xirurgiyaning dolzarb muammolari, ularning echimlari va istiqboldagi vazifalar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 15 iyun. Samarqand 2024 y. Maxsus son № 3. 193-194 b.

7. M.T.Isaev. A.I.Axmadov I.Yu.Sultanova. G‘alla chiqindisini quyonlarga berganda zararli ta’siri. Veterinariya sohasini rivojlantirishda ijtimoiy gumanitar fanlarning o‘rni mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy konferensiya Toshkent 2024 y. 23 fevral.

8. M.T.Isaev. A.I.Axmadov I.Yu.Sultanova. Yovvoiy o‘simgliklarni laboratoriya hayvonlariga berganda zaharlanish. “Zamonaviy xirurgiyaning dolzarb muammolari, ularning yechimlari va istiqboldagi vazifalar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Sam DVMCh va BU Samarqand -2024 yil 15 iyun. 177-179 bet.

9. M.T.Isaev. A.I.Axmadov I.Yu.Sultanova. Qishloq xo‘jalik hayvonlarining ekto prarazitlarga ta’sir qiluvchi PestKiL peritroiti zaharlilik darajasini quyonlar organizmiga ta’sir qilish mexanizimini o‘rganish. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi, Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti.”Veterinariya soxasidagi dolzarb muammolar yechimi yosh tadqiqotchilar talqinida” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 y. 1/24.28.06. 231-233 bet.

10. M.T.Isaev. A.I.Axmadov I.Yu.Sultanova. «Изучение механизма влияния препарата Пест Кил, воздействующего на эктопаразитов сельскохозяйственных животных на организм кроликов». ISSN-L :2544-908X Volume-52 Miasto Przysztosci. Open access indexed Research Journal From Poland. 2024, 23- September.

11. M.T.Isaev. A.I.Axmadov I.Yu.Sultanova.“Control of mycotoxicoses caused by mycotoxins” 3-Valeology:International Journal of Medical Anthropology and Bioethics ISSN-L (2995-4924) Volume-02 ISSUE 09, 2024. 23- September
12. M.T.Isaev. A.I.Axmadov I.Yu.Sultanova.Geliotrop zaharli o‘tlarga qarshi kurashishning zamonaviy usullar yordamida yo‘qotish va hayvonlar organizimida toksik ta’sirini o‘rganish bo‘yicha Tavsiyanoma Samarqand - 2024 y.22 b.
13. M.T.Isaev. A.I.Axmadov I.Yu.Sultanova. MEASURES TO TREAT AND PREVENT CHRONIC ASEPTIC TINDINITIS FOUND IN HORSES AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING ISSN: 2996-5128 (online) | ResearchBib (IF) = 9.918 IMPACT FACTOR Volume-3| Issue-1| 2025 Published: |30-01-2025|
14. M.T.Isaev. A.I.Axmadov I.Yu.Sultanova. ПАТОМОФОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПРИ ОТРАВЛЕНИИ КРОЛИКОВ ПЕРИТРОИДОМ PEST KIL, ПРИМЕНЁННОГО ПРОТИВ ЭКТОПАРАЗИТОВ. THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY VOLUME-5 ISSUE-3 ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023- 5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024